

ILK O'RTA ASRLARNING BUYUK DEVORI - KANPIRAK DEVOR

Bobohusenov Akmal Ahsurovich

Osiyo xalqaro universiteti tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552493>

Annotatsiya. Kanpirak devori bu Buxoro vohasi hududidagi eng qadimiy va xalq uchun ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lган devor sanaladi. Devorni qurishda Buxoro vohosiga xos bo'lган usul va xom ashyosini ko'rishimiz mumkin. Devor Buxoro vohasi aholisini turli ko'chmanchilar hujmidan saqlagan.

Kalit so'zlar: Qadimgi Sug'd, Kanpirak devori, Narshaxiy, Mas'udiy, Qoratov, sun'iy ko'tarma hol, to'rtburchak g'isht, arxeologik materillar, madaniy qatlam, burjlar, shinak.

THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL

Abstract. The wall of Kanpirak is considered to be the most ancient and socially and politically important wall in the territory of the Bukhara oasis. In the construction of the wall, we can see the method and raw materials typical of the Bukhara oasis. The wall protected the inhabitants of the Bukhara oasis from the attacks of various settlers.

Key words: Ancient Sug'd, Kanpirak wall, Narshakhi, Mas'udi, Karatov, artificial elevation, square brick, archaeological materials, cultural layer, constellations, shinak.

ВЕЛИКАЯ СТЕНА РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ – СТЕНА КАНИПРАКА.

Аннотация. Стена Канпираха считается древнейшей и социально и политически значимой стеной на территории Бухарского оазиса. В строительстве стены мы видим метод и сырье, типичные для Бухарского оазиса. Стена защищала жителей Бухарского оазиса от нападений различных поселенцев.

Ключевые слова: Древний Сугд, Канпиракская стена, Наршакхи, Масуди, Карапов, искусственное возвышение, квадратный кирпич, археологический материал, культурный слой, созвездия, шинак.

Qiziltepa tumanining shimoli-sharqiy, janubi-g'arb tomonidagi mavzelarda yer sathi tepasidan aniq-ravshan ko'rinib turuvchi, uzoq masofalarga cho'zilib ketgan chegarasidagi Qoratoq o'ngirlaridan boshlanib, Zarafshonning chap qirg'og'i bo'ylab, sharq-g'arb tomonga sun'iy tuproqko'rg'on qoldiqlari yastanib yotibti. Bu inshoot Karmana tumani markazi yo'nalgan. Abu Muslim kanalining chap qirg'og'i bo'ylab, tuman markazidagi Qiziltepa yodgorligi tomon yo'nalishini davom ettiradi va undan janubi-g'arba, so'ngra janubga yo'nalib, Kogon tumanining janubi-sharq qismida o'z nihoyasiga etadi.

Mahalliy aholi tilida ushbu mahobatli sun'iy qurilish istehkomi "Kampirdevol" deb ataladi. O'rta Osiyo mudofaa istehkomlari me'morchiligining nodir namunasi hisoblangan bu inshoot tarixi Buxoro vohasi xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, arxeologlar va tarixchilar tomonidan u "voha devori" deb atalgan. Kanpirak devori nafaqat alohida joylashgan bir turkum shahar va qishloqlar mudofaasi uchun, balki ulkan madaniy hudud, butun bir voha mudofaasi maqsadlari yo'lida hizmat qilgan. U o'zining me'moriy-qurilish usullari bilan jahonga mashhur Buyuk Xitoy devorini eslatadi. Samarqand shahri va uning tevarak-atrofini o'rab turgan qiyomat devori (Devori qiyomat) ham unga o'xshashdir.

Hozirgi paytda O'zbekiston tarixi fanida Kanpir devor (Devori kanpirak) atamasi O'rta Osiyoda dehqonchilik vohalarini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo etilgan mudofaa inshootlari tizimini anglatadi. "Kanpir devor" so'zining ma'nosi qazilgan choh demakdir. Talaffuzda "n" bilan "m" almashuvi kuzatiladi. "Pir" bo'g'ini esa qadimgi payrya – aylana, o'rov ma'nosida. Demak, kan(m)pir so'zining o'zi handaqli devor degani. Devor so'zi kanpir so'zining tub ma'nosi unutilganda qo'shilgan. Arxeolog va tarixchi olimlar O'tkir Alimov va Mirsodiq Ishoqovning fikricha, ilk o'rta asrlarda mintaqada Buxoro vohasidan tashqari to'rtta Kanpirak devori mavjud bo'lган. Birinchi Kanpirak devori yuqorida aytilganidek qadimgi Buxoro vohasidagi shahar-qishloqlarni o'rab olgan mudofaa devori. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi ma'lumotga ko'ra, Kanpirak devori 782 – 831 yillarda qurilgan. Arab tarixchisi va sayyohi Mas'udiy (956 yil vafot etgan)ning yozishicha, Kanpirak devori qadimgi Sug'd podsholari zamonida (V – VI asrlar) bino qilingan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Narshaxiy ma'lumoti bu devorning qayta tiklangan davriga to'g'ri keladi. Kanpirak devori xarobalarini arxeologik jihatdan o'rganish yozma manbalardagi ma'lumotni to'la tasdiqladi. Mas'udiy xabar qilgan dastlabki ko'hna devor Narshaxiy yozgan Kanpirak devoriga qaraganda ancha kichik maydonni egallagan. U sun'iy tarzda saqlangan. Bu devorning uzunligi 336 km bo'lган.

Buxoro Sug'diga qarashli Karmanadan cho'l hududi bo'y lab hozirgi Kogon tumani markazigacha, shuningdek, shimoli-g'arb, shimol va shimoli-sharq tomondan Buxoro vohasi mudofaa devori bilan o'rab olingen. Devor shimoli-g'arbda Varaxsha (Jondor tumani), undan Subuktepa, Bo'rontepa (Romitan), Ho'jasultepa (Peshko') sarhadlari bo'y lab o'tib, Shofirkon kanali chap qirg'og'i bo'y lab o'tgan va Abu Muslimtepaga borib tutashgan. Shuningdek, hazora darasi bo'y lab yana bir ko'tarma devor Konimeh vohasini kesib o'tgan va Karmana tumani markazida Qoratovga borib taqalgan.

Qorako'l vohasi tarkibidagi qadimgi Paykent shahri atroflarida mudofaa devori bo'lмаган. Uning o'rnida mudofaa qudrati oshirilgan ko'p sonli karvonsaroylar bunyod etilgan. Chorvador qabilalarning bosqinchilik yurishlari kuchaygan an'anaviy kuzgi-qishki mavsumlarda Buxoro vohasi qishloqlaridan ko'plab yosh jangchilar talonchilarning hujumlariga qarshi turishgan.

Kanpirak devori yo'naliشining har bir farsah (6-8 km) masofasida shahar yoki qishloqlar, shuningdek, rabotlar bunyod etilgan va bu aholi manzillari bir vaqtning o'zida chegara qo'rg'onlari vazifasini ham bajargan. Qiziltepa tumani hududida Qiziltepa shahar yodgorligidan tashqari SHaqri Vayron (Tavois shahrining o'rni), Oqsochtepa, Lavandoq kabi istehkomlar joylashgan. Shuningdek, har bir qo'rg'on va devor bilan o'rab olingen hudud uchun mahsus darvozalar, qo'rg'onlar orasida bir chaqirimdan kamroq masofada harbiy burjlar qurilgan. Demak, Kanpirak devor ko'p tarmoqli, qudratli mudofaa devori sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Kanpirak devori harobalarida N.F.Sitnyakovskiy, A.YU.Yakubovskiy, A.V.Shishkin, H.Muhammedov va boshqa arxeologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda devorning hozirgi Qiziltepa tumanidan o'tuvchi qismida quyidagi natijalarga kelindi:

- inshootning tag zamini shahal aralashgan tuproqdan iborat bo'lib, eni 13 metr ekanligi;
- devor asosan pahsadan, ayrim joylari qisman to'g'ri to'rtburchak shaklidagi yirik hajmli hom g'ishtlardan ko'tarilganligi;
- devor qurilishi haqitatan ikki bosqichda amalga oshirilgani;

So'nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar devor qurilishining ilk bosqichi – V asrning ohiri va VI asrning birinchi yarmi bilan bog'liqligini isbotladi.

Milodiy eranida O'rta Osiyo, SHarqiy Turkiston, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning katta qismida qudratli Eftaliylar davlati tashkil topadi. Bu davlat manbalarda Oq xunnnlar davlati deb ham aytildi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, eftaliylar Sirdaryo vodiysida istiqomat qilgan, dastlabki hayoti ko'chmanchi chorvador qabila tarzida bo'lган, keyinchalik janub tomonga yo'naliшgan. Bu davlatga eftaliylar, eftalitlar, haytallar, abdallar, yeda kabi turli nomlar bilan aytilgan Eftaliylar qabilalari ittifoqi asos solgan. 420-579 yillarda faoliyat ko'rsatgan Eftaliylar turkiy davlatining poytahti avval Buxoro yaqinidagi Poykend va Varahsha shaharlari, so'ogra Hindistondagi SHakala shahri (hozirgi Sialkat) bo'lган. VI asrning boshlari va o'rtalarida Eftaliylar davlati uchun eng katta havf Eron Sosoniylar davlati va Buyuk Turk xoqonligi tomonidan solinmoqda edi.

Kanpirak devor Buxoroning V-VI asrlardagi chegaralarini aniqlab beruvchi yagona inshoot sifatida qadrlanadi. Bu ulkan hudud o'sha davrda eng an'anaviy, mumtoz davlatchilik kurtaklari mavjud bo'lган yirik madaniy o'lka sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Turk xoqonligi davrida devorning avvalgi mavzei yo'qolgan. Garchand xoqonlikning zodagonlar qismi cho'l-dasht hududlarida yashagan bo'lsa-da, xoqonlik mahalliy suddiy aholi hamda ko'chmanchilar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik aloqalarini o'rnatish, savdo-sotiqni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lган. xoqonlik davrida hozirgi O'zbekiston va O'rta Osiyo hududidagi 15ga yaqin katta-kichik davlatlar mustaqilligi cheklangan, ular xoqonlikka rasman bo'ysindirilib, yillik boj-xirojlar to'lattirilgan. Mazkur kichik davlatlar (Buxorhudotlar podsholigi, Vardonxudotlar podsholigi, Samarcand Sug'di va boshqalar) Sug'd konfederatsiyasi bo'lib uyushgan va Buyuk Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. Xoqonlik savdo-sotiqdan, ayniqsa, ipak savdosidan katta foyda ko'rgani uchun Sug'd savdogarlariga katta imkoniyatlar yaratgan, ularga dunyoning eng uzoq o'lklarida ham savdo manzilgohlari qudirib bergen. Bu holat Kanpirak devor ahamiyatini yanada yo'qotgan va u harobaga aylana boshlagan.

Kanpirak devor o'zbek xalqi ajdodlarining qahramonona tarixi hisoblanadi. Uni bilish, ardoqlash, farzandlarimizga etkazish, saqlanib qolgan qismini yo'qotmaslik biz uchun ham qarz, ham farzdir.

REFERENCES

1. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXELOGIYA YODGORLIKARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
2. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
3. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>

4. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
5. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO 'RG 'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.
6. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKHLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
7. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKHLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
8. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
9. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
10. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
11. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich. (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
12. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
13. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
14. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10), 650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>
15. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
16. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
17. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
18. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of*

- History And Political Sciences, 3(10), 25–30.
<https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
19. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
20. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
21. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
22. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
23. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
24. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
25. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-12>